

INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA
SOLIQLARNING TA'SIRI

Shakirova Farog'at Boltayeva
Toshkent davlat transport universiteti
“Transport iqtisodiyoti”
kafedrasи professori
E-mail : farogat_1973@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliqlar va innovatsiyalarning mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsion rivojlanishni ta'minlashda soliqlar qanday ta'sir etishi atroficha o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion salohiyat, soliqlar, soliq siyosati, soliq imtiyozlari .

Аннотация: В данной статье объясняется сущность налогов и инноваций. Также детально изучено влияние налогов на обеспечение инновационного развития.

Ключевые слова: Инновации, инновационный потенциал, налоги, налоговая политика, налоговые льготы.

Abstrast: This article explains the nature of taxes and innovations. Also, the impact of taxes on the provision of innovative development has been thoroughly studied.

Keywords: Innovation, innovative potential, taxes, tax policy, tax incentives.

Kirish.

Iqtisodiy rivojlanish borasida har bir davlat o'zining taraqqiyot strategiyasini tuzib olar ekan, unda innovatsiyalar negizida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun harakat qiladi. Innovatsion rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, unda iqtisodiyotni innovatsiyalar harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lgan. Ishlab chiqaruvchilar iste'molchilarni o'zlariga jalb etish uchun jiddatli kurash olib borayotgan ayni paytda, bu muammoni hal qilishning birdan bir yo'li shuki, unda bugungi kun talabiga javob bera oladigan tovarlar va xizmatlarni yaratishdir. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi so'raqobat orqali olib borilgan innovatsion faoliyatda o'z aksini topadi.

Yangidan yangi tovarlar va xizmatlarni yaratish, ularni iqtisodiyotga joriy etish uchun esa kompaniyalar innovatsiyalarga murojaat qiladi. Innovatsiyalar negizida rivojlanishni ta'minlashda eng muhim masala ilm-fanning rivojlanishiga alohida e'tibor berish, rivojlantirish sanaladi. Buni iqtisodiyoti innovatsion rivojlangan qator mamlakatlar amaliyotida kuzatishimiz mumkin. Zero, "bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha

sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.

Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda [1]. Iqtisodiy rivojlanishni innovatsion relsga o'tkazish dolzarb masala bo'lib, davr talabi shuni taqozo etadi.

Yangi texnologiyalar, tovarlar va xizmatlarni yaratish va joriy etish ishlab chiqarishnirng samaradorligini oshirish, raqobatdoshlikni kuchaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu borada soliq siyosati innovation faoliyatni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Iqtisodiy fanda "innovatsiya"ning mohiyatiga birinchilardan bo'lib e'tibor qaratgan avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter: "Innovatsiya – bu mavjud jarayonga yangicha qarash, yondashuv bo'lib, zamonaviy kashfiyot va ishlanmani yoki insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangi ishlab chiqarishni ma'lum bo'lgan qandaydir jarayonga qo'llashdir [2]", -deya ta'kidlaydi.

Innovatsion iqtisodiyot 1920 yillarning oxiri 1930 yillarning boshlarida iqtisodiy fan sifatida vujudga keldi. N.Kondratev ushbu jarayon xususida to'xtalib, texnika sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar shubhasiz iqtisodiy rivojlanishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlagan edi [3]. Uning fikriga ko'ra, buning asosiy shartlaridan biri mamlakatda innovatsion "massa"ning to'planib qolganligi va iqtisodiyotda uni joriy etishning iqtisodiy shart-sharoitlari vujudga kelganligidir. Masalan, XVII asrning oxiri – XVIII asrning boshlarida shakllanib ulgurgan iqtisodiy kashfiyotlar XVIII asrning oxirida, industrial revolyusiya arafasida keng qo'llanildi.

Innovatsiyaning mazmuniga yanayam kengroq qaraydigan bo'lsak, uning lug'aviy ma'nosi inglizcha "innovation" so'zidan olingan bo'lib, yangilik kiritish, ixtiro so'zlarini anglatadi [4]. O'rghanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsiyaga rasmiy doirada ham ta'riflar berilgan. Ayniqsa, ularning ichida Oslo hukumatining innovatsiyaga bergen ta'rifi alohida e'tirof etiladi, unga ko'ra: "Innovatsiya - bu yangi g'oyalarni yaratish asnosida bozordagi talabga qarab zamonaviy va sifatli tovarlarni ishlab chiqarish orqali raqobatchilaridan o'zib ketishdir [5]", -deya qayd etiladi.

Innovasiya va soliqlarning o'zaro bog'liqligini qator iqtisodchi olimlar o'zlarining ilmiy ishlari dayoritishgan. Jumladan kllasik iqtisodiy maktabining yirik vakillaridan Adam Smit innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkin bo'lgan davlat xizmatlarini moliyalashtirish zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, uning fikricha yangi texnologiyalarga, ya'ni innovatsiyalar yordamida samarali raqobat mexanizmiga o'tish iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlangan. Agar

bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining investitsiyalarni jalg qilib, ularni yangi texnika, texnologiya yaratishga yo'naltirish, innovatsiyalar asosida bozordagi o'z mavqeini mustahkamlash orqali raqobatdosh bo'lishini, yangi bozorlar oshish uchun kurashda amaliy omil sifatida innovatsiyalardan foydalananotganini hisobga olsak, uning ushbu ta'limoti hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan[6].

David Rikardonning asarlarida to'g'ridan to'g'ri soliqlar va ularning innovasiyalarga ta'siri borasida ilmiy asarlarida bevosita tadqiq qilinmagan. Ammo soliqlar iqtisodiy faoliyatga, jumladan ishlab chiqarish va resurslar taqsimotiga ta'siri ta'siridagi nazariy qarashlari muhim ahamiyatga ega. Rikardo sarmoyalar o'sishini cheklovchi omillar haqida yozar ekan, soliqlar ishlab chiqarish xarajatlarini oshirishi va tadbirkorlar foydasini kamaytirishi mumkinligi, bu esa bilvositainnovasiyalarni rag'batlantirish imkoniyatini qisqartirishi mumkinligi e'tirof etgan. Soliq siyosati va tizimi to'g'ri tashkil qilinmasa, u iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilishini ta'kidlagan. Uning soliqlar va ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi fikrlari innovasiyalarni rag'batlantiruvchi yoki cheklovchi siyosatlarini tahlil qilish uchun ilmiy asos sifatida xizmat qilgan [7].

Shumpeter kreativ destruksiya nazariyasida soliq siyosati innovasiyalarni qo'llab quvvatlashi yoki cheklab qo'yishi mumkin [8]. Shumpeter ushbu asarida innovatsiya va tadbirkorlik qanday qilib eski iqtisodiy tuzilmalarni yo'q qilish va ularning o'rmini yangilari bilan almashtirishga olib kelishini tasvirlab beradi, u klassik taraqqiyot muqarrar ravishda eskirgan texnologiyalarni, biznes modellarini va ijtimoiy institutlarni yo'q qilishni o'z ichiga oladi, buning muhim jihatni hisoblanadi. kapitalistik tizim. Amerika iqtisodchisi Duglas Nort fikricha, institutsional o'zgarishlar, jumladan soliq tizimi innovatsion faollikka o'z ta'sirini ko'rsatadi [9]. Monetaristik iqtisodiy maktabning yirik namoyondasi Milton Fridman [10] soliqlarning iqtisodiy o'sishga, shu jumladan innovasiyalarga ta'sirini o'rganar ekan, u davlatning minimal aralashuvi innovasiyalarni rag'batlantirishda muhim ekanini ta'kidlaydi. Amerikalik nobel mukofti sovrindori, keynschilik maktabi iqtisodchisi Djozef Stiglis esa soliqlarning ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rganar ekan, innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun soliq tizimining ahamiyatini ham ko'rsatadi. Fransuz iqtisodchisi Tomas Piketti esa o'z navbatida, daromadlar tengsizligini tahlil qilar ekan, u innovatsion faoliyatlarini rag'batlantirish uchun progressiv soliqlarning zarurligini ta'kidlaydi [11].

Amerikalik iqtisodchi, Nobel mukofoti laureati Richard Taler fikricha[12], soliqlar va ularning ijtimoiy faoliyatlarga, shu jumladan innovasiyalarga ta'siri haqidagi konsepsiyanı muhokama qiladi, soliq siyosatining rag'batlantiruvchi mexanizmlari haqida fikr yuritadi. Angliyalik olim Entoni Bennett innovatsiyalarni rag'batlantirishda soliqlar va soliq siyosatining rolini muhokama qiladi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun samarali soliq mexanizmlarini taklif qiladi [13].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida innovasion rivojlanishni ta'minlashda soliqlarning ahamiyatiga oid iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodshi olimlarning soliq siyosati, uning innovasiyalarga ta'siriga oid ilmiy asarlari o'rganilgan. Mavzuni o'rganish davomida adabiyotlar qiyosiy tahlili,

mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Innovatsiyalar milliy iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatib, uning o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shamdi. Quyida biz innovatsiyalarning iqtisodiyotga ta'sir qilishini asosiy usullarini ko'rib o'tamiz.

Innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini, mahsuldorligini oshiradigan yangi texnologiyalar, jarayonlar va usullarni yaratishga olib keladi. Buning natijasida kompaniyalar kam xarajat evaziga ko'proq tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi.

Yangi ish o'rirlarini yaratish: Yangi texnologiyalar va mahsulotlar yangi ko'nikma va bilimlarni talab qiladi, bu esa yangi ishlab chiqarishlarda ish o'rirlari yaratilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli innovatsiyalar mavjud kompaniyalarning rivojlanishiga yordam beradi, bu esa yangi ish o'rirlarini ham yaratadi.

Raqobatbardoshlik: Innovatsiyalar kompaniyalarning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini saqlab qolishga yordam beradi. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga katta miqdorda sarmoya kiritadigan mamlakatlar yuqori sifatli va noyob mahsulotlarni taklif qilishi mumkin, bu esa eksport imkoniyatlarini oshiradi.

Iqtisodiy o'sish: Innovatsiyalar mamlakat yalpi ichki mahsulotini (YaIM) oshirish orqali iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Yangi mahsulot va xizmatlar qo'shimcha qiymat yaratadi, bu esa daromad va iste'molning oshishiga olib keladi.

Hayot sifatini yaxshilash: Innovatsiyalar ko'pincha fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga olib keladi. Sog'liqni saqlash, ta'lif, transport va boshqa sohalardagi yangi texnologiyalar hayotni yanada qulay va xavfsiz qiladi.

Barqaror rivojlanish: innovatsiyalar ekologik muammolarga yangi yechimlar taqdim etish orqali barqaror rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalari va resurslardan foydalanish samaradorligi atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga yordam bermoqda.

Investitsiyalar va moliyalashtirish: Innovatsiyalar ham davlat, ham xususiy sektor tomonidan investitsiyalarni jalb qiladi. Bu yangi vechur fondlari, startaplar va tadqiqot markazlarini yaratishga olib kelishi mumkin.

Globallashuv: Innovatsiyalar iqtisodiyotning globallashuviga yordam beradi, kompaniyalarga xalqaro bozorlarga chiqish imkonini beradi. Bu mamlakatlar o'rtasida savdo va hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ijtimoiy o'zgarish: Innovatsiyalar odamlarning ishlash, muloqot qilish va o'zaro munosabatlarini o'zgartirish orqali ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Masalan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'lif va mehnatga yondashuvlarni o'zgartirdi.

Umuman olganda, innovatsiyalar milliy iqtisodiyot rivojida muhim o'rinn tutadi, uning jadal sur'atlarda o'sishiga, turmush sifatini oshirishga va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Innovatsiyalarni faol qo'llab-quvvatlayotgan va unga sarmoya kiritayotgan mamlakatlar iqtisodiy muvaffaqiyat va farovonlik uchun ko'proq imkoniyatga ega.


Innovatsiyalar haqida so'z yuritar ekanmiz, ularning soliqlar bilan aloqadorligini ko'rib chiqamiz. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida soliqlar muhim rol o'ynaydi. Soliq siyosati innovatsion faoliyatga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bevosita

ta'siriga soliq imtiyozlari va stavkalari, shuningdek amortizatsiya kiradi. Soliq imtiyozlari ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlariga, yangi texnologiyalarni joriy etishga, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari kompaniyalarni innovatsion faoliyatga jalb qilish uchun muhim stimul bo'lib xizmat qiladi. Pasaytirilgan soliq stavkalari esa innovatsion korxonalar faoliyati uchun muhim omil bo'lishi mumkin. Tezlashtirilgan amortizatsiya innovatsion uskunalar va texnologiyalarni sotib olishga investitsiya kiritishni rag'batlantiradi.

Shuningdek, bilvosita ta'sirlar o'z ichiga qo'yidagilarni oladi:

- Soliq tizimining barqarorligi va shaffofligi. Barqaror va shaffof soliq tizimi investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.
- Soliq ma'murchiligi. Soliq ma'murchiligini samaradorligi va qulayligi ham innovatsion faoliyatga ta'sir ko'rsatadi.

Soliqlarning innovatsion rivojlanishga ta'siri ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Quyidagi 1-rasmda ularning bir nechta asosiy jihatlarni ko'rshimiz mumkin:



1-rasm. Soliqlarning innovatsion rivojlanishni ta'minlashdagi asosiy ta'sir qilish jihatlari¹.

Yuqoridagi 1-rasmida aks ettirilgan jihatlarni yoritadigan bo'lsak, tadqiqot va ishlanmalarini moliyalashtirish soliqlar ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, soliq tushumlari ilmiy muassasalar va startaplar uchun grantlarni moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Shuningdek, soliq imtiyozlari va preferensiyalari innovatsiyalar bilan shug'ullanadigan kompaniyalar uchun tadqiqot va ishlanmalarga beriladi. Bu esa o'z navbatida innovatsion loyihalarga yo'naltirilgan

¹ O'rjanilgan adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlangan.

xususiy investitsiyalarni rag'batlantiradi. Yuqori daromad solig'i stavkalari kompaniyalarning yangi texnologiyalar va ishlanmalarga sarmoya kiritish rag'batini kamaytirishi mumkin, chunki foydaning bir qismi soliqlarga tushadi. Bu innovatsion faollik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, soliq siyosati kapital qo'yilmalar darajasiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, asbob-uskunalar va texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar uchun berilgan soliq imtiyozlari ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashadi. Raqobatbardosh soliq tizimi xorijiy kompaniyalar va investorlarni jalb qilishi rag'batlantirishi mumkin, bu esa mamlakatda innovatsion muhitni rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin.

Hozirgi kunda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda startaplar uchun belgilangan soliq imtiyozlari yangi kompaniyalarga dastlabki bosqichlarda omon qolishga, innovatsion mahsulot va xizmatlarni rivojlantirishga katta yordam berayotganligini ko'rshimiz mumkin.

Murakkab va chalkash soliq tizimi amalda bo'lsa, innovatsiyalar uchun to'siq bo'lishi mumkin, chunki kompaniyalar tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish o'rniga soliqqa rioya qilish uchun katta resurslarni sarflashlari mumkin.

Soliqlarning innovatsiyalarga ijobiy va salbiy ta'sirlarini qator iqtisodchi olimlar o'rganishgan. Innovatsion rivojlanishga ijobiy ta'siri quyidagilarda ko'rish mumki

- Soliq imtiyozlari: Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadikii, ITTKI ga berilgan soliq imtiyozlari i ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiya xarajatlarini kamaytirish orqali innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkin [14].
- Soliq raqobati: mamlakatlar o'rtasidagi soliq raqobati soliq stavkalari bo'yicha "pastgacha poyga"ga olib kelishi mumkin, bu esa kompaniyalar yanada qulayroq soliq sharoitlaridan foydalanishga intilishlari sababli innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkin[15].

Salbiy ta'sirni esa қуидагиларда кўришимиз мумкин:

Soliq yuki: Yuqori soliq stavkalari ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalarning daromadlarini kamaytirish va biznes yuritish xarajatlarini oshirish orqali innovatsiyalarni iqtisodiyotga joriy etishni kamaytirishi mumkin [16].

Murakkablik: Murakkab soliq tizimlari noaniqlikni keltirib chiqarishi va muvofiqlik xarajatlarini oshirishi mumkin, bu esa innovatsiyalarga to'sqinlik qilishi mumkin [17].

Soliqdan qochish: Agressiv soliqqa yo'l qo'ymaslik strategiyalari resurslarni innovatsiyalardan va soliqni rejalashtirishga yo'naltirishi mumkin[18].

Шунингдек, нейтрал таъсир, яъни, coliqlarning холислиги: Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soliqlar haddan tashqari og'ir yoki murakkab bo'lmasa, innovatsiyalarga nisbatan neytral bo'lishi mumkin [19].

Bilvosita soliqlar korxonalar faoliyatiga neytral (xolis) pozitsiyadadir, degan nazariyadan kelib shiqib, respublikamizda ularni fiskal ahamiyatiga qarab, katta e'tibor berilmoqda. Shuning uchun mamlakatimizdagи bevosa аholi farovonligi va ishlab shiqaruvshi foydasiga ta'sir ko'rsatadigan bilvosita soliqlar ulushini kamaytirib, bevosa soliqlarni rag'batlantiruvshi funktsiyasidan foydalangan holda ushbu soliqlarning ulushini va manbaini ko'paytirish siyosati amalga oshirilmoqda.

Bevosita soliqlar stavkalarining pasaytirilishi, soliq solishning soddalashtirilishi

"xufiyona iqtisodiyot" ning rivojlanmasligiga olib keladi. Ikkinshidan, so'nggi yillarda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, soliq stavkalarini pasaytirish va soliqlardan imtiyozlar berish hamda ishlab chiqarishning o'sishi natijasida soliq yuki darajasi ansha pasaydi. Bu esa YaIM hajmining o'sishiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Yurtimizda olib borilayotgan oqilona makroiqtisodiy siyosat va uning eng ta'sirshan, muhim yo'nalishi bo'lgan soliqqa tortish masalalarida ham ustivorlik tovar va xizmat ishlab shiqaruvshilar, tadbirkorlik subyektlari manfaatiga berilmoxda. Oxirgi yillardagi soliq stavkalari bo'yicha ijobjiy o'zgarishlarni taxlil qiladigan bo'lsak quyidagilarga e'tibor beramiz (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda 1992 yildan 2023 yilgasha bo'lgan davrda soliq to'lovi stavkalarining o'zgarishi.²

Soliq turlari	1992-2009-yillardagi eng yuqori soliq stavkalar	2010-yilda o'rnatilgan stavkalar	2021-yilda o'rnatilgan stavkalar	2023-yilda o'rnatilgan stavkalar	Pasayish
Qo'shimcha qiymat solig'i	30 foiz	20 foiz	15 foiz	12 foiz	2,5 barobar
Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i	45 foiz	9 foiz	15 foiz	15 foiz	3 barobar
Yuridik shaxslar uchun mult solig'i	5 foiz	3,5 foiz	2 foiz	2 foiz	2,5 barobar
Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	15,2 foiz	7,0 foiz	4 foiz	4 foiz	3,8 barobar
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	60 foizgasha	22 foizgasha	12 foiz	12 foiz	5,0 barobar
Yagona ijtimoiy to'lov	40 foiz	25 foiz	12 foiz	12 foiz	3,3 barobar

Jadval ko'rsatadiki, tahlil uchun olingan davrlarda iste'mol talabi va tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida qo'shimcha qiymat solig'i stavkasi 30 foizdan 12 foizga tushirildi va 2,5 barobarga pasaytirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yagona soliq to'lovi stavkasi yalpi tushumning 2005 yildagi 15,2 foizidan 4 foizga tushirildi, 3,8 barobarga pasaytirildi. Mustaqillik yillarida yuridik shaxslar daromad solig'i stavkasining pasaytirilishi korxona va tashkilotlarning oborot mablag'ini to'ldirishga, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ijobjiy xizmat qiladi.

Muayyan soliq turi stavkasining pasayishi alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Masalan, yagona ijtimoiy to'lov, jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalarining

² Davlat statistika o'hmitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

kamayishi ishlaydigan ishshi-xodimlar va aholi daromadlarining muttasil oshib borishiga hamda ularni yanada kushli ijtimoiy muhofaza qilishga xizmat qiladi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday samarali soliq siyosati natijasida xo'jalik yurituvshi subyektlar ixtiyoriga majburiy tarzda to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larning qoldirilganligi ularga davlat tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rlik va ularni qo'llab-quvvatlanishning aniq ko'rinishidir.

Shu nuqtai nazardan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion rivojlanishini ta'minlashda innovatsion faoliyat subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlari hal qiluvshi omillardan biri ekanligini inobatga olib, ularga quyidagi yo'nalishlarda soliq imtiyozlarini berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan xo'jalik yurituvshi subyektlarining amalga oshirayotgan loyihasining qiymati, ahamiyati va istiqbolini hisobga olgan holda yer solig'i, mol-mulk solig'i va foydadan olinadigan soliqlardan qisman yoki to'liq ozod qilish dolzarb masala hisoblanadi.

2. Innovatsion faoliyat olib borayotgan tijorat korxonalari va boshqa xo'jalik yurituvshi subyektlarning innovatsion loyihami amalga oshirish uchun sarflagan investitsiyasi hajmidan kelib shiqib yagona soliq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, respublika yo'l fondiga, Respublika maktab ta'limi fondiga to'lanadigan soliqdan qisman yoki to'liq ozod etish masalasini hal etish.

3. O'zbekistonga yoki mamlakat hududida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarga to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalar miqdoriga, ishlab shiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan eksportning ulushiga qarab defferensiyalashgan soliqqa tortish tizimini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Mamlakat hududlarining tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, geografik joylashuvi, tarixiy ixtisoslashuvidan kelib shiqqan holda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish va ularga nisbatan kompleks imtiyozlar tizimi, xususan soliq imtiyozlari tizimi ishlab chiqish lozim bo'ladi. Mamlakatda samarali innovatsion siyosatni ishlab chiqish, iqtisodiyotining investitsiya kiritilishi lozim bo'lgan ustivor tarmoqlarini aniqlash, ularda olib borilayotgan ITTKIga tabaqalashgan soliq imtiyozlarini qo'llash zarur bo'ladi.

5. Mamlakatning boj-ta'rif siyosatini yanada takomillashtirish –innovatsion faollikni oshirishga ijobiy ta'sir qiladigan makroiqtisodiy dastaklardan muhimi hisoblanadi. Ma'lumki, davlatning tashqi savdo faoliyati, tadbirkorlarning eksport salohiyatimizni oshirishdagi ishtirokini kushaytirish bevosita ularga nisbatan yuritilayotgan boj-ta'rif stavkalari, tashqi savdoning leberallashtirilganligiga bog'liq. Fikrimizsha tadbirkorlarga bu sohada yordam berish mamlakatimizning qishloq-xo'jaligi mahsulotlari va ularni qayta ishslash yo'nalishidagi ulkan eksport imkoniyatlaridan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

6. Tadbirkorlarga tashqi savdo yo'nalishida real erkinliklar berilishi, davlat buyurtmasidan ortiqsha qishloq-xo'jaligi mahsulotlarini sotishga tegishli sharoit yaratiishi o'ylaymizki milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga katta turtki bo'ladi.

7. Davlatning moliya, pul-kredit sohasidagi munosabatlarini yangilash, takomillashtirish zarurati kundan-kunga oshib bormoqda. Bizningsha bu sohada avvalo mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalariga e'tibor qaratish zarur. Demoqshimizki investitsiyalarning asosiy qismini iqtisodiyotning real sektori sohalariga

yo'naltirish lozim. Bundan tashqari tadbirkorlik subyektlariga kredit berish tizimini soddalashtirish, kredit stavkalarini pasaytirish, bankka aholining ishonshini yanada kushaytirish shora-tadbirlarini ishlab chiqarish va amalga oshirishi lozim bo'adi.

Yuqorida qayd etilgan yo'naliшlardagi muammo va vazifalarning hal etilishi – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning moddiy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Shunday qilib, soliq siyosati iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlovchi, ham cheklay oladigan muhim vositadir. Innovatsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan samarali soliq tizimi butun iqtisodiyotning o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Mamlakatda innovatsion rivojlanishni ta'minlash va bu jarayonda soliq siyosati, soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish masalalarini takomillashtirishga oid quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Rivojlangan davlatlardan innovatsion mahsulotning rasmiy-huquqiy shakli bo'lган patent, litsenziyalarning kam xarid qilinishi va oqibatda zamonaviy texnika-texnologiyalarning milliy iqtisodiyotga sust joriy etilishi.
2. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning moddiy asosi hisoblangan texnopolislari, texnoparklar, biznes inkubatorlar va ilmiy-texnik markazlarning tashkil etilmaganligi innovatsion iqtisodiyotga o'tishdagi katta muammolardan biri hisoblanadi va ularni zudlik bilan tashkil etish shoralarini ko'rish zarur.
3. Erkin iqtisodiy zonalar(EIZ) – innovatsion iqtisodiyotning moddiy, texnik-texnologik asosini yaratuvshi manbalar hisoblanadi. Ularning tashkil etishning huquqiy-tashkiliy masalalarini hal etish va sonini ko'paytirishning shora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish lozim.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari asosan soliqlar hisobiga shakllanishi va keyingi yillarda soliqsiz daromadlarning ham o'sib borishi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida to'g'ri, ya'ni bevosita soliqlarga nisbatan egri (bilvosita) soliqlarni salmog'i yuqori ekanligini ta'kidlash zarurdir. Egri soliqlar turlari ko'p bo'lmasa ham, ularni byudjetdagi salmog'i to'g'ri soliqlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, egri soliqlarni to'lash ist'molshi zimmasiga tushadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, soliqlarning innovatsiyalarga ta'siri murakkab va turli omillarga, jumladan, soliq turiga, soliqqa tortish darajasiga va umumiy biznes muhitiga bog'liq.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoev tomonidan birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent // Xalq so'zi. 22.12.2017 yil.
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: ЭКСМО, 2007.
3. Кондратьев Н. Д.Большие циклы конъюнктуры // Вопросы конъюнктуры. 1925. № 1.
4. Gentry W. M., Hubbard G. R."Success Taxes", Entrepreneurial Entry, and Innovation // NBER Working Paper. 2004. No 10551.

5. Руководство Осло. Рекомендации по сбору и анализу данных по инновациями / перевод с англ. З-изд. М.: 2006. (Oslo Manual Guidelines for Collection and Interpretation of Innovation Data. Third ed. A Joint publication of OECD and Eurostat. OECD/EC.2005).
6. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М.: Соцэкгиз.1962. С-345
7. .David Ricardo. On the Principles of Political Economy and Taxation (19 April 1817).
8. Capitalizm, Socializm and Democracy, 1942.
9. Duglas Nort "Understanding the Process of Economic Change"(2005).
10. Фридман М. Капитализм и свобода / Пер. с англ. М.: Новое издательство, 2006. — 240 с. (Библиотека Фонда «Либеральная миссия»).
11. Tomas Piketty "Capital in the 21st Century" (2013),
12. Richard H. Thaler Cass R. Sunstein."Nudge: Improving Decisions About Health, Wealth, and Happiness" (2008).
13. Entoni Bennett. "Innovation and Taxation" (2015).
14. Hall, B. H., & Van Reenen, J. (2000). How effective are fiscal incentives for R&D? A review of the evidence. Research Policy, 29(4-5), 449-469.
15. Devereux, M. P., & Griffith, R. (2003). Evaluating tax policy for location decisions. International Tax and Public Finance, 10(2), 107-126.
16. Auerbach, A. J. (1983). Taxation, corporate financial policy, and the cost of capital. Journal of Economic Literature, 21(3), 905-940.
17. Djankov, S., Glaeser, E., La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2003). The new comparative economics. Journal of Comparative Economics, 31(4), 595-619.
18. Desai, M. A. (2009). The decentering of the global firm. The World Economy, 32(9), 1275-1293.
19. OECD (2015). OECD Science, Technology and Industry Scoreboard 2015. OECD Publishing.
20. Shakirova, F. B. (2022). THE IMPORTANCE OF TAXES IN BUSINESS DEVELOPMENT. Confrencea, 6(6), 236-237.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

